



BADIIY MATNLARDA O'XSHATISHLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

Jo'rayev Nabi Narziyevich

Termiz davlat universiteti o'zbek
tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Email: jurayevnabi@tersu.uz

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805493>

ARTICLE INFO

Received: 26th March 2023

Accepted: 05th April 2023

Online: 06th April 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Har bir xalqning ruhi, madaniyati uning tilida mujassamlashgan bo'ladi. Shu ma'noda ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan, shuningdek, barcha madaniy hodisalarning eng muhimi sanalgan tilga madaniyatning in'ikosi deya qarash o'rinlidir. Tilning asosiy elementi so'z bo'lib, so'z nutqda fikr almashish quroli vazifasini bajarsa, badiiy asarda esa ijodkorning orzu-maqsadi, o'y-xayollarini yuzaga chiqaruvchi hamda voqelikni obrazli tasvirlash vositasi sifatida namayon bo'ladi. Darhaqiqat, badiiy asar (matn) tilining ta'sirchan bo'lishini belgilovchi, ta'minlovchi birdan-bir omil badiiy asar tilining badiiy jihatdan pishiq, ta'sirchan bo'lishidir. Bunda so'z ustalari (yozuvchi, shoirlar) ning til birliklari, ayniqsa, o'xshatishlardan mahorat bilan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Eramizdan oldingi IV asrda tuzilgan Panini grammatikasidan boshlab qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsurdan tarkib topishi ta'kidlangan, "ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki obyekt; 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi"¹. Shunga asosan Professor N.Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni ham to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi. Bizningcha ham ushbu fikr ilmiy haqiqatni ifoda etadi. "...o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi"².

¹ Невелова С. Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – М.: Наука, 1979. – С.38.

² Махмудов Н, Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати.– Т.:Маънавият, 2013. – Б. 5.



Tilshunoslikda o'xshatish³ termini lingvomadaniy boyligimiz sifatida har bir xalqning milliy dunyoqarashi, tafakkur tarzi, olamni idrok etishida katta o'rin tutadi. Bugungi zamonaviy tadqiqotlarda o'xshatishlarning lingvomadaniy jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. V.A.Maslova o'xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini ta'kidlab, fikrini rus, belorus va qirg'iz tilida qo'llaniluvchi o'xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi. Uning fikricha, *глаза блестящие, как Иссык-Куль, стройный, как марал, сильный, как Манас* kabi qurilmalar qirg'iz xalqining milliy dunyoqarashini aks ettiradi. Olimaning ta'kidlashicha, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi, xususan, o'sha xalq tilida qo'llaniluvchi o'xshatishlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi⁴. Olimaning yuqoridagi fikridan kelib chiqib, assotsiativ fikrlash mahsuli bo'lgan o'xshatishlarni o'zbek va jahon adabiyotining taniqli yozuvchi va shoirlari ijodi misolida ko'rib chiqish kerak degan to'xtamga keldik. Masalan, "Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'p hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun *kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq*: kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xaxolab kulishlari *saroyni ko'kka ko'targudek* (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar"); Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizning *xuddi bir o'yinchoq* bo'lg'anini iqror etishga majbur bo'ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa xolimizning nima bo'lishig'a aqlim yetmay qoldi" (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar").

Ma'lumki, har qanday o'xshatish asosida yuzaga kelgan matn ma'lum grammatik vositalar yordamida hosil qilinadi. Bu grammatik vositalarga *-dek, -day* qo'shimchalari, *xuddi, singari, kabi, bamisoli, misoli* kabi yodamchi so'zlar kiradi. Xususan, A.Qodiriyning o'ziga xos so'z tanlash, qo'llash, badiiy til imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahorati aks etgan birinchi matn qiyosiy o'xshatish (*kunduzgiga qaraganda saroy jonliq* birikmasidan anglashiladiki, kechki payt bo'lishiga qaramay kunduzgidek saroy odamlar bilan to'la va saroyda jo'shqinlik hukmron) va yaqqol o'xshatish, ya'ni o'xshatish komponentidagi leksik birliklarning ifodalanganligi (saroydagi jo'shqinlikka sabab – *saroyni ko'kka ko'targudek* kishilarning so'zlashishi va kulishi) bilan asoslanadi. Ikkinchi matnda esa *xuddi* yordamchi so'zi *-dek (-day)* qo'shimchasi vositasida anglashilgan o'xshatish ma'nosini kuchaytirib, retsipient ongida idoradagi holat, vaziyatning o'yinchoqdek tartibsiz, nazoratsizligi haqidagi ma'lumotni gavdalantiradi.

O'xshatish badiiy vosita sifatida badiiy asarlarda azaldan qo'llanilib kelingan lingvomadaniy birliklardan hisoblanadi. Shuning uchun badiiy asarlarda o'xshatishning an'anaviy bo'lgan ko'plab turlarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, o'xshatishlar yuzaga kelishi asoslari, badiiy asar tilida qo'llanishi, ma'nolari va komponentlarining tarkibiga ko'ra farqlanadi. Jumladan, tilshunos olim M.Mukarramov "O'zbek tilida o'xshatish" nomli kitobida o'xshatishlarning hammasi sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishi haqida fikr yuritib, "...o'xshatishlar, avvalo, ikki katta guruhga bo'linadi. Birinchi gruppaga o'xshatishlar sezgilarga asoslanadi va real bo'lgan predmet hodisalar qiyoslanadi. Bunday o'xshatishlarni shartli ravishda konkret o'xshatishlar deb nomladik. Ikkinchi gruppaga o'xshatishlar tasavvurlar

³ O'xshatish - Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri. Qarang: Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Дисс. ...док-ра филол. наук. – Ташкент, 1984, - Б.259.

⁴ Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Докторлик дисс.. автореферати. – Тошкент, 2015. – Б.161.



asosida yuzaga chiqadi. Bunday o'xshatishlarni shartli ravishda abstrakt o'xshatishlar⁵, - deb ataydi. Bizningcha, konkret o'xshatish so'zi o'rnida aniq o'xshatish va abstrakt o'xshatish o'rnida mavhum o'xshatish nomlarini ishlatganimiz ma'qulroq. Fikrimiz dalili sifatida amerikalik mashhur yozuvchi Ernest Xeminguey asarlaridan misollar keltiramiz: Men french va ko'ylagimni yechib, tosdagi *muzdek suvga yuvindim*. (E.Xeminguey. "Alvido, qirol"); Ayrim paytlarda dengizga mehr qo'ygan odamlar, u haqda badhazm gaplar aytishardi, ammo doimo bu gaplar dengiz emas, *go'yo ayol* ustida borayotganga *o'xshaydi...* qarmoqlariga po'kak o'rniga buy ishlatadiganlar xilidan bo'lgan yoshroq baliqchilar esa dengizni Vel mar deb ataydilar va unga *er kishiga qaraganday* qaraydilar. Ularning nazdida dengiz *go'yo, hududsiz bir sayhon, go'yo bir raqib*, gohida esa, *hatto bir dushman* bo'lib ko'rinadi (E.Xeminguey. "Chol va dengiz").

Yuqorida Ibrohim G'afurovning ruschadan o'zbekchaga tarjimai asosida keltirilgan birinchi matn aniq o'xshatish (qiyoslanayotgan narsa, hodisalar nisbatan haqiqatga to'g'ri keladi va ko'pincha *-day//-dek, kabi, singari, o'xshamoq* elementlari orqali ifodalanadi – M.Mukarramov) ga misol bo'ladi. Bunda *muzdek suv* birikmasi orqali tosdagi suvning sovuqligi, uning ko'rinish belgisi muzning sovuqlik darajasi bilan choqishtirilgan. Inson taqdirining ulug'ligi, insondagi iroda va matonatning o'zgacha talqini o'z ifodasini topgan "Chol va dengiz" qissasidagi parchada esa chol tilidan dengiz – ayolga; yoshroq baliqchilar tomonidan esa *hududsiz bir sayhon, raqib, dushmanga* o'xshatilishi E.Xemingueyning tafakkur maxsuli, fantaziyasi o'laroq yuzaga kelgan mavhum (biror kishining nazarida, xayolida yoki tasavvurida ro'y beradi. Aslida esa bunday o'xshatishlar ko'pincha, *nazarida, aylanmoq, eslatmoq, go'yo* so'zlari bilan ifodalanadi⁶) o'xshatishning ko'rinishlaridir.

Yana misollar: "Hazrati Abu Homid G'azzoliy "Mukoshafat ul-qulub" ("Qalblar kashfiyoti") kitoblarida deydilarkim: ...Ahvol shundaki, ba'zan kishi bir mo'min qardoshining ko'zidagi *tariqday kirni* ko'radi-yu, ammo o'z ko'zidagi *yong'oqday dog'ni* ko'rmaydi" (T.Malik. "Odamiylik mulki"); Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyovi Sheralixonni o'ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, *qo'y kabi yovvosh* Toshkand hokimi Salimsoqbekni o'ldirib, o'rniga *Azizbekdek zolimni* belguladi (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar"); - Birovlarning bolasi bo'lsa...Yig'lasa, sizga nima? Yig'lab-yig'lab ovunadi. – Nimaga birovning bolasi bo'larkan! – To'satdan onamning jahli chiqib ketdi... Indamadim. Ammo baribir o'shanda onamni nohaq hisoblagan edim. Yo'q, *chamamda*, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o'lchovimizga sig'maydigan o'z olami borga *o'xshaydi* (O'Hoshimov. "Dunyoning ishlari"); Endi *misga aylangan oltin*, Vafo so'zin anglashar arang. Lermontovni ayblashdan oldin, Hayotga ham qayrilib qarang (A.Oripov. "Everest va ummon").

Yozuvchi T.Malik qalamiga mansub ma'naviyat va tarbiya masalasiga bag'ishlangan "Odamiylik mulki" risolasidan olingan matndagi *"tariqday kir"* va *"yong'oqday dog"* aniq o'xshatishlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, insonlar, odatda, o'zlarning ko'p qusur va ayb (*"yong'oqday dog"*) lari bo'lishiga qaramay, ammo hasadgo'yliги tufayli qarindoshi yoki do'stining arzimagan kichik ayb (*"tariqday kir"*) i uchun unga ta'na-dashnom qiladi. Ko'rinadiki, xalq tilida ishlatilgan *"tariqday kir"*, *"yong'oqday dog"* turg'un o'xshatishlari zamirida "Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq" mazmunidagi madaniy axborot tashuvchi maqol oydinlashadi. O'xshatish mazmunli ikkinchi badiiy matnda *"qo'y kabi yovvosh"* - qo'y

⁵ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 25-26.

⁶ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 26.



zoonimining ma'nosi o'zbek tilidagi qo'yday yuvvosh birikmasi tarkibida nutqiy sharoitda "yuvvosh", "beziyon" mazmunini ifoda etib, Salimsoqbek obrazining xulq-atvoridagi ijobiy xislatni bayon etadi; "*Azizbekdek zolim*" – Azizbek ("O'tkan kunlar" romanidagi salbiy qahramonlardan birining nomi) zolim sifati birga qo'llanib, kitobxon tasavvurida Azizbek poetonimining zolim erkak ramziga aylanishiga sabab bo'lgan. Uchinchi misol tahlili shuni ko'rsatadiki, matndagi "chamamda" mavhum o'xshatish (ayni paytda kirish so'z) i va "onalarning biz tushunmaydigan, bizning o'lchovimizga sig'maydigan o'z olami borgan o'xshaydi" metaforik xarakterdagi matn-o'xshatish orqali yozuvchi (O'.Hoshimov) tasavvurida kechayotgan o'y-xayoliga javob – "har bir onalarning farzandlar tushunmaydigan o'z olami bor" degan iqrori kognitiv asosda ochib berilgan. A.Oripovning "Everest va ummon" she'riy to'plamidan o'rin olgan parchadagi "*misga aylangan oltin*" metaforik qurilmasi o'zbek lingvomadaniyatida inson qadr-qimmat, sadoqatiga berilgan baho, ta'rif bo'lib, ushbu individual-muallif o'xshatishi shoirning milliy-madaniy tafakkur tarzi, ijodiy olamiga xos poetik fikrning to'laqonli badiiy va obrazli qiyofa kasb etishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonning borliqni bilishida o'xshatish bilan birgalikda qiyos ham muhim mantiqiy kategoriya sifatida tilda o'z ifodasini topadi. Ammo bu ikki konstruktsiya (o'xshatish va qiyos) bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, ular sematik jihatdan farqli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, agar ikki predmet yoki tushuncha ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish maqsadida qiyoslangan bo'lsa, sof qiyosiy konstruktsiya (masalan, *yer toshdan qattiq*) shakllanadi, qiyoslash-o'xshatish maqsadni ko'zda tutganda esa o'xshatish konstruktsiya (masalan, *yer toshdan qattiq*) shakllanadi⁷.

Yosh tilshunos olim Z.Umurqulov nazariy adabiyotlarda bir qator tilning tasviriy vositalarining vujudga kelish asosi qiyos bilan bog'liqligini ta'kidlab, tadqiqotchilar o'xshatish, metafora, epitet, baho kabi hodisalar mohiyatida qiyos mavjud ekanligini qayd etishganligini e'tirof etadi⁸.

Mulohaza va taqqos uchun misollar keltiramiz: "Men karaxt bo'lib qolgan edim. Yo'q, ishonmayman. Yolg'on, bu gap yolg'on! Dunyoda *Xo'jadan yaxshi bola yo'q*. Xo'ja yomon bo'lishi mumkin emas..." (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari"); "*Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek irinlari ostidagi sadafdek oq tishlari ko'rinib ketdi ersa-da, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa alishindi*". (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar"); "Ikki tomchi yosh *nozik novdadan* oqib tushib chang bosgan kiyimlarim orasiga noumid holda singib ketdi". (M.Norbekov. "Million tekin maslahat topish yo'li yoxud jo'jalar qayerda qishlaydi"); "Men *o'zimga va boshqalarga nisbatan tanqidiy munosabatni hayotimdan quvish ustida ishladim*" (Luiza Xey. "Ichimizdagi hayotbaxsh kuchlar").

Keltirilgan birinchi matn sof qiyosiy konstruktsiyaning namunasi bo'lib, *boshqa insonlar* – qiyos subyekti; *Xo'ja* – qiyos etaloni; *yaxshi* – qiyos asosi (belgisi); *-dan* – qiyosning shakliy ko'rsatkichi sifatida ajratiladi. Ikkinchi mikromatndagi *Kumushbibining yoqutdek irinlari* (*Kumushbibi* – o'xshatish subyekti; *yoqut* – o'xshatish etaloni; *irinlari* – o'xshatish asosi; *-dek* – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi), *Kumushbibining sadafdek oq tishlari* (bunda *Kumushbibi* –

⁷ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 8-9.

⁸ Умурқулов З. Бадий матнда қиёс ва унинг лингвопоэтик қиммати. Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри дисс... – Қарши, 2020. – Б.46.



o'xshatish subyekti; *sadaf* - o'xshatish etaloni; *tishlari* - o'xshatish asosi; - *dek* - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Ayni paytda, *sadafdek oq tishlar* turg'un o'xshatishi qiyos vositasi (-dan) bilan almashtirilsa, qiyos konstruktsiya ham hosil bo'ladi) o'xshatish konstruktsiyalari milliy-madaniy nigoh mahsulidir. Har qanday konstruktsiya ham qiyos bo'lib kela olmaydi. Masalan, uchinchi matndagi "Ikki tomchi yosh *nozik novdadan* oqib tushib chang bosgan kiyimlarim orasiga noumid holda singib ketdi" jumlasida qiyos vositasi (-dan) bo'lsa-da, sof qiyosiy tuzilma deb bo'lmaydi. Chunki bu gapda qiyos uchun asos bo'ladigan belgi, ya'ni zidlanish mavjud emas. Bu yerda "nozik novda" birligi orqali metaforik xarakterdagi epitet (qiyosning tarkibiy qismi) qo'llanilgan. Hissiy va mantiqiy bilish asosida shakllangan so'nggi mikromatnda ham qiyosning barcha unsurlari (qiyos subyekti - men; qiyos etaloni - o'zgarlar va boshqalar; qiyos asosi - hayotidan chiqarib tashlamoq; qiyos vositasi - -ga nisbatan) qatnashgan bo'lib, har bir a'zo o'ziga xos lug'aviy-semantik tabiatga egaligi bilan xarakterlanadigan tafakkur operatsiyasidir.

Aytish joizki, o'xshatish mazmuni ifodalangan matnlarni yaratishda matn tuzuvchi (so'z ustalari) turli kommunikativ strategiyalarni qo'llashi mumkinligi tadqiqotchilar tomonidan o'zbek nasrida keng tadqiq etilgan. Buni o'xshatishlarning quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratilgan tasnifi orqali tushuntirmoqchimiz:⁹

Matn tuzuvchi matn referentini biror narsaga o'xshatish orqali o'xshayotgan narsaga xos belgilarni ifodalaydi. Matn oxirida esa mazkur belgi natijasida sodir bo'luvchi voqea-hodisani ifodalovchi propozitsiya ifodasi o'rin egallaydi. Masalan:

G'iybat qilgan kishi maydonga bir to'p qo'yib, o'ng-u so'lni zambarak o'qidan sovurgan kimsaga o'xshaydi. G'iybat qilayotganda g'iybatchining go'zal amallari o'ng-u so'lga sovurilgan bo'ladi... Har narsaning kiri bo'lganidek, tilning kiri g'iybatdir. G'iybat so'zlari birovga nisbatan bo'lgan hasad o'tidan paydo bo'ladi... G'iybatlardan uzoq kishi gunohlardan uzoq bo'ladi... (T.Malik. "Odamiylik mulki")

Bunga o'xshash matnlar persepsiyasi kitobxondan o'xshatishga asos bo'lgan belgilarni ham o'xshatilyotgan, ham o'xshayotgan referentga xos belgi sifatida idrok etishni taqozo qiladi. Navbatdagi matnga e'tiborimizni qaratamiz: "*Har qanday yomonlikning jazosi xuddi o'ziga o'xshagan yomonlikdir... Odamlarga zulm qiladigan va Yerda nohaq hadlaridan oshadigan kimsalarni ayblash va zulm-u zo'ravonliklari uchun jazolashgagina yo'l bordir. Ana o'shalar uchun alamli azob border*" (Sho'ro surasidan) (T.Malik. "Odamiylik mulki").

Mazkur matn tarkibidagi *odamlarga zulm qiladigan, yerda nohaq hadlaridan oshadigan kimsalar, alamli azob bor* ifodalarning umumiy mazmuni bir vaqtning o'zida ham *yomonlik*, ham *jazo* belgilari haqidagi ma'lumotni retsipient ongiga muhrlaydi.

1. Matn tuzuvchi ikki predmet yoki voqea-hodisani o'zaro o'xshatadi, matnning keyingi jumllarida birinchi jumlada qo'llangan referentlardan birini matn fokusiga aylantiradi: *Oila qurgan kishini kemanding ichiga tushgan odamga qiyoslash mumkin: kema dengiz o'rtasiga yo'l olgan. Dengizda esa po'rtanalar mavjud. Farzandlarning tug'ilishi bu kemani boshqarishni yanada qiyinlashtiradi. Endi kema darg'asidan yanada ko'proq kuch va mahorat talab etiladi* (T.Malik. "Odamiylik mulki"). Bu o'rinda mikromatnning birinchi jumlasida qo'llangan *kema* so'zi matnning keyingi jumllarini mazmuniy tomondan bog'lovchi komponent vazifasini

⁹ Mazkur tasniflar D.Xudayberganovanning dissertatsiyasidan olindi. Qarang: Худайбергано́ва Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Докторлик дисс... автореферати. – Тошкент, 2015.



bajargan. Bunda yozuvchi (T.Malik) *kema so'zi orqali oila (turmush)* referentiga ishora qilib, 2-va 3-jumlalarga implikativ axborotni joylashtirganligiga amin bo'lamiz.

2. O'xshatish mazmuni ifodalangan matnlarga xos bir jihat shundaki, ularning tarkibida qo'llangan o'xshatish qurilmasi matnning metaforik mazmun kasb etishiga olib keladi. Bunga matn tuzuvchining o'xshatish uchun asos bo'lgan birlikni dastlab o'z ma'nosida, keyin esa ko'chma ma'noda qo'llashi sabab bo'ladi. Quyidagi matnlarga e'tibor beramiz: "*Hammayoq alg'ov-dalg'ov bo'lib ketibdi. Olis yurtga sim qoqib, zudlik bilan moslamani tuzatib berishni talab qilishibdi. Ustalar yetib kelib qarasa, chindan ham, ahvol chatoq. "Nega bizga **buzuq** mashina o'rnatdinglar?" – debdi zavoddagilar. Ustalar mashinani tekshirishib ko'rishibdi. Keyin yerga oqib yotgan xamirni tekshirishibdi. So'ng aytishibdi: "Mashina **buzuq** emas, uni ishlatayotganlar **buzuq!**.."* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari"); ***Yalqovlik** bu orom olishga intilishdir. Orom esa o'zining yuksak namunasiga intiladi, mutloq orom, abadiy oromga (abadiy uyquga). **Yalqovlik** – bu o'limning kichik ko'rinishi* (M.Norbekov. "Quvvat senda, qo'shil! Tentakning hayot tajribasi, yoxud ko'zing ochilishiga kalit. Ko'zoynakdan qutulish").

Ko'rinadiki, 1-mikromatndagi *buzuq (tajribasiz semasi ifodalangan)*, 2-mikromatndagi *yalqovlik (yalqovlik – bu o'lim kognitiv modeli asosida original metaforaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan)* kabi lingvomadaniy birliklari matn nihoyasida metaforik ma'no kasb etib, matnda emotiv modallikning yuzaga kelishini ta'minlagan. Lisoniy vositalarning bu taxlit "hamkorligi" haqida S.Boymirzaeva shunday deb yozadi: "Darhaqiqat, matnda tavsifiy birliklar (epitet, o'xshatish) yagona bir maydonga birikib, yetakchi (dominant) ma'no kasb etadi va shu yo'sinda emotiv modallik mazmuni ifodalanadi"¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, obrazli tafakkur mahsuli bo'lgan o'xshatishlar til sohiblari (yozuvchi, shoirlar) ning ijodiy tafakkuri, kommunikativ strategiyalari, shuningdek, har bir xalqning dunyoni idrok etishdagi o'ziga xosligini to'laqonli badiiy va obrazli qiyofa kasb etishini ta'minlovchi lingvomadaniy birlik sifatida ahamiyatlidir.

References:

1. Невелова С. Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – М.: Наука, 1979. – С.38.
2. Махмудов Н, Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати.– Т.:Маънавият, 2013. – Б. 5.
3. O'xshatish - Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri. Qarang: Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Дисс. ...док-ра филол. наук. – Ташкент, 1984, - Б.259.
4. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Докторлик дисс.. автореферати. – Тошкент, 2015. – Б.161.
5. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 25-26.
6. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 8-9.

¹⁰ Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 96.



7. Умуркулов З. Бадий матнда қиёс ва унинг лингвопоэтик қиммати. Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри дисс... – Қарши, 2020. – Б.46.
8. Mazkur tasniflar D.Xudayberganovanning dissertatsiyasidan olindi. Qarang: Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Докторлик дисс... автореферати. – Тошкент, 2015.